



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	



SAHNA NUTQIDA ADABIY TUR VA JANRLARNING METODIK TALQINI

Dilrabo Jumanova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
 "Sahna nutqi" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tur va janrlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va takomillashuvi haqidagi tahliliy fikrlar maqola mazmunini tashkil etadi. Talabalar bilan badiiy so'z ustida ishlashda nasriy asarlarning o'rni va ahamiyatiga to'xtalib o'tilgan. Sahnaviy nutqni rivojlantirishda nasriy asarlar ijrosi, ayniqsa romanlardan tanlangan adabiy parchalar ustida ishlash bo'yicha amaliy tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: adabiy tur, janr, epos, nasr, roman, qissa, hikoya, sahna nutqi, roviy, ijro, maktab, metodika.

Abstract: The content of the article is made up of analytical thoughts on the emergence, development, and improvement of literary types and genres. The role and importance of prose works in working with students on the literary word were discussed. In the development of stage speech, practical recommendations were given on the performance of prose works, especially work on selected literary fragments from novels.

Key words: literary type, genre, epic, prose, novel, short story, narrative, stage speech, narrator, performance, school, methodology.

Аннотация: Содержание статьи состоит из аналитических размышлений о возникновении, развитии и совершенствовании литературных типов и жанров. Обсуждалась роль и значение прозаических произведений в работе со студентами над литературным словом. В рамках развития сценической речи были даны практические рекомендации по исполнению прозаических произведений, особенно по работе с отдельными литературными фрагментами из романов.

Ключевые слова: литературный жанр, жанр, эпос, проза, роман, рассказ, повествование, сценическая речь, рассказчик, представление, школа, методология.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning: "Biz - g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqimiz.¹ Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha, bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland, ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga yetish mumkin [1. B. 297]", - degan ruhlantiruvchi fikrlari har bir insonning jon tomirida aks sado berishi kerak.

Haqiqatan ham Sharq mentaliteti, ma'naviyati, ilmu ma'rifati bilan jahon sivilizatsiyasiga o'z hissasini qo'shgan o'zbek adabiyoti uzoq yillik tarixga ega. O'zbek va jahon adabiyotining bir-biriga bo'lgan ta'siri davomida adabiy jarayonda mumtoz adiblar va ular tomonidan yaratilgan nodir namunalar bir talay.

Talaba adabiy turlarning bunday sintezlashuvi jarayonida teranroq fikr yuritmog'i darkor. Negaki, turlarning bir-biriga uyg'un holda biri-birining talab va qoidalarini buzib, yangi xususiyatlar bilan boyib borishi adabiy turlarning qotib qolgan, dogma emasligini, balki rivojlanish va yuksalish sari yuzlanayotganligini ko'rsatadi. Faqat bunda talaba o'tkir zehnliligi, fikri teran, yuksak bilim va salohiyatli bo'lmog'i darkor.

¹ <https://boyovuttakm.uz/uz/biz-gururi-oriyat-manaviyati-baland-xalqimiz/>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiy tur va janrlar masalasi adabiyotshunoslik fanining muhim nazariy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo qadimgi yunon faylasufi Aristotelning "Poetika" asaridan boshlab ilmiy tadqiq etib kelinadi. Aristotel adabiyotni epos, lirika va drama kabi turlarga ajratib, ularning badiiy tasvir usullari va estetik vazifalarini asoslab bergan.

Nemis faylasufi G.V.F. Hegel o'zining estetik qarashlarida adabiy turlarni tasvir predmeti va obyekt-subyekt munosabatlari asosida tahlil qilgan. Olimning fikricha, epos voqealarni, lirika ruhiy kechinmalarni, drama esa harakat va ziddiyatlarni aks ettiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida adabiy tur va janrlar nazariyasi Izzat Sulton, Dilmurod Quronov hamda Erkin Xudoyberdiyevlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Izzat Sulton adabiy turlarni badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan bog'liq holda tahlil qilgan bo'lsa, Dilmurod Quronov adabiy turlar o'rtasidagi sintezlashuv jarayonlari va zamonaviy janrlar evolyutsiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Erkin Xudoyberdiyev esa adabiy tur va janrlarning suyet, kompozitsiya hamda badiiy ifoda vositalari bilan bog'liq xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Sahna nutqi metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda badiiy asarlar, xususan, nasriy janrlarning talabalarning nutq madaniyati, badiiy tafakkuri va ijro mahoratini rivojlantirishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar roman, qissa va hikoyalardan olingan adabiy parchalar ustida ishlash talabalarning sahnaviy nutq texnikasi, obrazli fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etadilar.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar sahna nutqi ta'limida adabiy tur va janrlarning metodik talqini muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

tahlil va taqqoslash, so'rov va intervyu, mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va xorij tajribasini o'rganish metodlaridan foydalanilgan. Tarixshunoslar, olimlar, tadqiqotchilar tomonidan adabiy jarayonning har bir bo'g'ini ilmiy tadqiq qilinib, badiiy talqin qilinishi ma'naviy merosning bugungi kunda yoshlar tafakkurining rivojida, o'z kasbiy faoliyatida yuksak marralarni egallashida ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti tomonidan bir qancha qaror va farmoyishlar, qonunlarning ishlab chiqilishi esa soha rivoji yo'lidagi sa'y-harakatlarning amaliy isbotidir.

Nasriy asarlar haqida so'z boshlashdan oldin nasriy asarlar adabiyotning qaysi turiga mansubligi to'g'risida fikr yuritsak. Adabiy jarayonda adabiy tur degan ibora mavjud. Og'zaki va yozma adabiyotning shakllanishi bilan adabiy turlar ajralib chiqqa boshladi. Bu haqda bir qancha olimlarning, adabiyot nazariyotchilarining ilmiy tadqiqotlarida asosli fikrlar mavjud. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o'zining tadqiqotlarida, ilmiy izlanishlarida adabiy turning shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida quyidagicha fikr yuritadi: Adabiy tur - adabiy asarlarning nutqiy tashkillanishi, tasvir predmeti, obyekt va subyekt munosabati kabi jihatlar bilan umumiylik kasb etuvchi yirik guruh.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyot nazariyotchilari Arastu va Gegelning ilmiy tadqiqotlari adabiy turni yaqqol va to'laqonli tasvirlab bergan. Ya'ni epos voqealikni, lirika hissiy kechinmani va drama harakatni o'zida namoyon qilishi talabaniy fikrini ravonlashtiradi.

Kundan kunga rivojlanib borayotgan adabiy turning omuxtalashuvi talabada biroz ikkilanish holatlarini ham tug'dirmoqda. Bu haqda Dilmurod Quronov shunday deydi: Adabiy turlar orasida qat'iy chegara, "xitoy devori" yo'q. Ya'ni turlarga ajratishda ma'lum shartlilik saqlanib qolaveradi, zero, muayyan asarda barcha adabiy turlarga xos xususiyatlar ham zuhur qilaveradi. Ikkinchi tomondan, badiiy adabiyot rivoji davomida adabiy turlar bir-birini boyitadi, ular orasida sintezlashuv jarayonlari kechadi.

Adabiy asarlarni turlarga ajratish masalasi qadimdan diqqat markazida bo'lgan. Antik davr yunon faylasufi Aflotun o'zining "Davlat" asarida shoir o'z tilidan (lirika), o'zgalarning gaplarini muloqot sifatida tasvirlab (drama) yoki bu ikkisini qorishiq (epos) qo'llagan holda taqlid qilishi mumkinligini aytadi [2. B. 17].

Adabiy-badiiy asarlarning tur va janrlarga ajratilishi talabada aniq va ravon yo'lni belgilab olishda qulaylik yaratadi. Talaba tartibli ravishda adabiy turlarni ajratgan holda fikr izchilligida harakat qiladi.

Tadqiqotchi D. Quronovning izlanishlarida adabiyot nazariyotchisi Arastu va Gegelning adabiy tur haqidagi qarashlari ham o'rin olgan: San'atni tabiatga "taqlid qilish" deb bilgan Arastu esa tabiatga uch xil yo'sinda:

- o'zidan tashqaridagi narsa to'g'risida hikoya qilayotgandek (epos);
- taqlidchi o'z holicha qolgan, qiyofasini o'zgartirmagan holda (lirika);
- tasvirlanayotgan kishilarni faol harakatda taqdim etgan holda (drama) taqlid qilish mumkin deb bilgan.



Turlarga ajratishda taqlid usulini asosga qo'yish an'anasi XVIII asrgacha davom etdi. XVIII asrga kelib nemis faylasufi Hegel badiiy adabiyotni turlarga ajratishda "obyekt" va "subyekt" munosabatini, shuningdek, tasvir predmetini, ya'ni konkret asarda nima tasvirlanayotganini asos qilib oldi: epos voqeani, lirik ruhiy kechinmani, drama harakatni tasvirlaydi [2. B. 17,18] - degan ilmiy izlanishlari bilan talabaga aniq belgilangan yo'lni ko'rsatib o'tadi.

Masalan, zamonaviy epos o'ziga dramaga xos elementlarni singdirgani uchun tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Hozirgi epik asarlarni ulardagi dialoglar, boshqacha aytgach, "sahna epizod"larsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yana, hozirgi eposda dramaga xos syujet qurilishi (syujet vaqtining qisqarishi, voqealarning dramatik shiddat bilan rivojlanishi)ning ta'siri tobora kuchayib borayotgani kuzatiladi. Shunga o'xshash drama va lirikaning o'ziga epik unsurlarni singdirishi ularning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, hozirgi she'riyatda voqeaband she'rlar keng ommalashgani, tavsifiy lirikada epik unsurlar salmoqli o'rin tutayotgani ham turlararo sintezlashuv natijasidir [2. B. 20].

Aristotelning "Poetika"sidan beri adabiyot asarlarini uch katta guruhga bo'lish ilmda qoida bo'lib qoldi. Bu guruhlarning har biri hozirgi zamon adabiyotshunosligida "adabiy tur" yoki "adabiy jins" deb ataladi. Bu uch tur - epos, lirika va dramadir. Hozirgi zamon o'zbek tilida epos - "nasr" va "proza", lirika esa "poeziya" va "she'riyat" terminlari bilan ham ifoda etiladi. Adabiy asarlarni bunday guruh (tur)larga bo'lish ularning mazmuni, vazifalari va tasviriy vositalari orasida mavjud tafovutlarga asoslangandir va shu tafovutlarni aks ettiradi [3. B. 238], - deydi akademik Izzat Sulton.

Adabiyot nazariyasi bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borgan olim Izzat Sulton ham adabiy turlarni o'rganish jarayonida yunon faylasufi Arastuning ilmiy manbalariga tayanadi. Aristotelning "Poetika" asarining uchinchi bobida adabiy tur va janrlar haqida so'z borishini ta'kidlab o'tadi. Izzat Sulton adabiy turlarni o'rganar ekan, ilk adabiy jarayonda adabiy tur so'zi bilan yonma-yon ravishda "adabiy jins" atamasini qo'llaydi. Lekin bu atama adabiy jarayonda passiv holatda qo'llanildi va "adabiy tur" atamasining o'rnini bosa olmadi.

Adabiy jarayonda adabiy tur va janrlarni keng va badiiy talqini haqida Erkin Xudoyberdiyevning tadqiqotlarida aniq va lo'nda ta'riflanganligini kuzatish mumkin. Hatto tadqiqotlarida ijodkorona yondashuv va tushuntirishlarni kuzatish imkoniyati mavjud: Lirika syujeti lirikdir, ya'ni u his-tuyg'u, ko'ngil va qalb sirlari, hayajon, ehtiros, ruhiyat, kechinma, fikr rivojini ko'rsatadi, unda voqea rivoji yo'q; epos syujeti buning teskarisidir, ya'ni voqea rivojidir, epikdir, boshi va oxiriga ega bo'lgan hodisadir, yaxlit va tugaldir va unda ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim aniq ko'rinib turadi; drama syujeti dramatikdir, voqea unda tez o'sib boradi, bu hol xarakterlarning o'tkir ziddiyatli, hayot-mamot kurashi va qat'iy harakatlarida shakllanadi [4. B. 228, 229], - degan lo'nda fikrlari bilan har bir adabiy turning sifatini yorqin tasvirlagan jumalarga ko'zingiz tushishi mumkin.

Bu esa talabaga adabiy turlarni anglashda aniq chizilgan yo'l xaritasidek gap. Shu fikrlar izidan borgan talaba adabiy turlarni bemalol ajrata olishi, to'g'ri talqin qilishi, hatto adabiy turlar bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi mumkin.

Talabalarning sahnaviy nutqini nasriy asarlar vositasida rivojlantirishda avvalo roman janri asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalar oliygohda 3 yil davomida "Sahna nutqi" fanini o'zlashtirar ekan, shu yillar davomida romanlar mutolaasi, ulardan olingan parchalar ijrosi bilan o'z ijodiy salohiyati, badiiy o'qish, badiiy so'z mahoratini yuksaltirib boradi. Shu o'rinda roman haqida to'xtalib o'tsak: Roman (fr. Roman - "lotin tilida emas, roman tillaridan birida yozilgan" ma'nosida) - zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri. Romanga ta'rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko'lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lab talqin qilishi, ko'plab va turfa kishilar taqdirleri orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko'p chiziqli syujetga ega bo'lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi [2. B. 257, 258].

Talabalar o'quv dars mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida roman janriga qayta-qayta murojaat qilib, romandagi davr voqeligi, kishilar hayotining ziddiyatlari, qahramon taqdirining ijtimoiy munosabatlar orqali ochib berilishini katta qiziqish bilan kuzatib boradi. Talaba o'zini ta'sirlantira olgan, ziddiyatlar to'qnashuvida ochib berilgan voqelikni tomoshabin bilan baham ko'rish maqsadida, qolaversa, badiiy so'zdagi mahoratini oshirish nuqtai nazaridan romanlardagi keskin to'qnashuv sahnalarini ijro uchun belgilab boradi. Roman o'qishdan ko'zlangan maqsad muallif ilgari surgan badiiy g'oyani anglab yetish bilan birga talabalar jonli nutqi orqali asarning badiiy qimmatini yanada ta'sirchan ifoda etishni ko'zda tutadi.

Dilmurod Quronovning tadqiqotlarini kuzatganimizda har bir izlanishlarida yangi fikr, yangi izlanishlarni yoxud oldingi fikrlarga qarshi, boyituvchi qarashlarni uchratish mumkin. Quyidagi fikrlari bilan tadqiqotchi romaning yangi sifatlariga ahamiyat qaratish lozimligi haqida aytib o'tadi: amalda hajman qissadan farq qilmaydigan yoki qisqagina davr mobaynida kechgan voqealar tasviri bilan cheklangan romanlar ham, markazida birgina shaxs taqdiri (boshqa personajlar uning xarakterini ochishga xizmat qiladi) turgan yoki birgina syujet chizig'iga ega romanlar ham uchraydi. Shuning uchun mutaxassislar romanning janr sifatida belgilovchi muhim xususiyatlari deb yana romaniy problema, romaniy qahramon va romaniy tafakkurni ko'rsatishadi. Tabiiyki, bu uchala tushuncha bir-biriga uzviy bog'liq, biri ikkinchisini taqozo etadi. Romaniy problemaning mohiyati shundaki, u inson taqdiri, uning jamiyat (kengroq qaralsa - olam) bilan o'zaro munosabati badiiy tadqiqi orqali olamu odam

mohiyatini anglashga intiladi. G. Lukach fikriga ko'ra, dunyoning yaxlitligiyu butunligini, mavjudlikning tub mohiyatini anglash romanning bosh muammosi bo'lsa, qahramonning dunyo bilan ziddiyati o'sha muammoni hal qilish vositasidir.

M. M. Baxtin esa qahramon taqdiri va egallagan mavqeining uning o'ziga nomuvofiqligi roman janrining markaziy mavzu-muammolaridan biri deb hisoblaydi. Demak, romanda qo'yilgan muammoni badiiy idrok etish uchun qahramon ham shunga mos bo'lishi talab qilinadiki, buning uchun romaniy qahramon jamiyatda yashagani holda, o'zining individligini teran idrok etadigan, muhit bilan ziddiyatga kirishgan shaxs bo'lishi lozim. Zero, romanning klassik tushunchadagi "burjua eposi" (Gegel), "yangi davr eposi" (Belinskiy) sifatidagi ko'rinishi shaxsning jamiyatdagi maqomi o'zgargan, u o'zini o'z holicha butun bir olam sifatida idrok eta boshlagan bir sharoitda shakllandi. Shu bois roman markazida shaxsning hayoti, uning ziddiyatlariyu to'qnashuvlari turadi. Nemis faylasufi Shelling roman voqeasini eposdan, taqdirni dramadan oladi deganida ayni shu narsani nazarda tutgan [2. B. 258].

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, roman asosida shaxs taqdiri yotadi. Qahramon va ziddiyatlar kurashi, turfa kishilarning qahramon hayotiga ta'siri, qahramon va davr muammosi dramatik talqin bilan ochib beriladi. Qahramonning o'tkir ziddiyatlar va ayovsiz to'qnashuvlar ta'sirida o'z e'tiqodi va irodasini yo'qotmay, ezgu maqsadlar sari intilishi roman janrining sifatini belgilaydi. Yozuvchi qahramonning davr va zamon hamda kishilar qarama-qarshiliklariga qarshi mardonavor kurashini ta'sirchan va badiiy ifodalab berar ekan, badiiy asar g'oyasini kitobxon ongi-shuurida mustahkamlab boradi.

Qolaversa, romandagi voqelik va qahramonlar taqdiridagi qarama-qarshiliklar o'sib, rivojlanib borishi va xatti-harakat zanjiri uzilmasdan boyib borilsa, talabning zerikishiga, chalg'ishiga imkon qoldirmaydi. Romanning bunday katta qiziqish bilan o'qilishi tanlangan mavzu, qahramonning boshiga tushgan taqdir sinovlari va kurashlari bilan ochib berilishida albatta yozuvchining badiiy salohiyati muhim rol o'ynaydi. Katta mahorat va yuksak tajriba bilan yozilgan romanlar talabalarning qalbidan joy oladi. Ayrim roman talabida yozilgan, ammo o'quvchini qiziqitira olmaydigan, qahramon taqdiri maishiy muammo va qiyinchiliklar bilan ochib berilgan, ijtimoiy voqelik haqqoniylikdan yiroq bo'lgan ayrim asarlarga kitobxon qalbidan emas, kitob javonlaridangina joy olishi mumkin.

"Sahna nutqi" dars mashg'ulotlarida talabalar romanlardan adabiy parchalar tanlab, yillar davomida sahnaviy nutqini o'stirib boradi. Talabalarning sahnaviy nutqini nasriy asarlardan olingan adabiy parchalar ustida ishlash metodikasi bilan tarbiyalash talabalarning ilmiy-ijodiy salohiyatini yuksaltiradi. Talabalar oliygohda tahsil olishning 1-bosqichida nutq texnikasi bo'yicha mashg'ulotlarga diqqat qaratgani holda nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash ustida ishlaydi. O'quv yilining 2-semestrndan boshlab nasriy asarlardan olingan manzarali (tasviriy) parcha ustida tahlil va talqin ishlarini olib boradi. 2-bosqichning 3-semestrda nasriy asarlardan olingan kam voqeali parchalar, 4-semestrda ko'p voqeali parchalar ustida ishlaydi. 3-bosqichning 5-semestrda turli janrga oid parchalar, 6-semestrda esa to'liq asar yoki murakkab adabiy parchalar tahlili va talqini ustida ijodiy izlanishlar olib boradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini masalasi atroflicha o'rganilgan va mavzuga oid manbalar asosida tahlil etilgan. Adabiy parcha o'qish metodikasini o'rganish adabiy tur va janrlarga murojaat qilishdan boshlanadi. Ayniqsa, nasriy asarlar mutolaasi adabiy parchalar tanlash uchun asosiy manbadir. Nasriy asarlardan tanlangan adabiy parchalar ijrosini yakka darslar davomida ustozlaridan o'rganib, mustaqil ijod qilish metodlarini o'z amaliy tajribalarida mustahkamlab borish jarayoni talabalarning individual imkoniyatlarini ochadi. Negaki, mustaqil ishlash va mustaqil ta'lim tizimiga o'rgangan talabaning imkoniyatlari keng bo'lib, ijodkorni o'z ustida ishlashga yo'naltiradi. O'z ustida ishlagan talabaning ilmiy va ijodiy salohiyati har doim yuqori bo'lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati / D.Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva. - Toshkent: Akadernashr, 2013.
3. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi: Un-tlar va ped. In-tlarning filol. Fak. Stud. Uchun darslik. - 2-nashri. - Toshkent: O'qituvchi, 1986.
4. Xudoyberdiyev, Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / Erkin Xudoyberdiyev. - Toshkent: "Sharq", 2008.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.